

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....	132
M.Kenjaye-va	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 930.85:39(5):930(5)

TARIXIY XOTIRA VA MA'NAVIY MEROS: SHARQ MAMLAKATLARI TAJRIBASI
ИСТОРИЧЕСКАЯ ПАМЯТЬ И ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ: ОПЫТ ВОСТОЧНЫХ СТРАН
HISTORICAL MEMORY AND SPIRITUAL HERITAGE: THE EXPERIENCE OF EASTERN COUNTRIES

Sultonov Mardonqul Yoqub o'g'li 

Jizzax viloyati Paxtakor tumani tt-sonli umumta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq mamlakatlarida tarixiy xotira va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Tarixiy xotira milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada Sharq xalqlarining boy madaniy an'analari, diniy-ma'naviy merosi va tarixiy tajribasi asosida xotira institutlari, tarixiy ongni shakllantirish mexanizmlari hamda ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, tarixiy xotirani saqlash va uni yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullari hamda globallashuv sharoitida milliy merosni asrab qolishning pedagogik va ijtimoiy falsafiy jihatlarini ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В данной статье анализируется роль исторической памяти и духовного наследия в развитии общества в странах Востока. Историческая память проявляется как важный фактор осознания национальной идентичности, сохранения ценностей и воспитания будущего поколения в духе патриотизма. В статье на основе богатых культурных традиций, религиозно-духовного наследия и исторического опыта народов Востока освещаются институты памяти, механизмы формирования исторического сознания, а также их влияние на социально-духовную жизнь. Кроме того, рассматриваются современные методы сохранения исторической памяти и её передачи молодёжи, а также педагогические и социально-философские аспекты сохранения национального наследия в условиях глобализации.

Abstract

This article analyzes the role of historical memory and spiritual heritage in the development of society in Eastern countries. Historical memory is presented as an important factor in understanding national identity, preserving values, and educating future generations in the spirit of patriotism. Based on the rich cultural traditions, religious and spiritual heritage, and historical experience of Eastern peoples, the article highlights memory institutions, mechanisms of shaping historical consciousness, and their impact on socio-spiritual life. In addition, it examines modern methods of preserving historical memory and instilling it in the younger generation, as well as the pedagogical and socio-philosophical aspects of safeguarding national heritage in the context of globalization.

Kalit so'zlar: Tarixiy xotira, ma'naviy meros, Sharq mamlakatlari, milliy o'zlik, qadriyatlar, madaniyat, tarixiy ong, an'ana, globallashuv, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Ключевые слова: Историческая память, духовное наследие, страны Востока, национальная идентичность, ценности, культура, историческое сознание, традиция, глобализация, духовность, воспитание молодёжи, социально-философский анализ.

Key words: Historical memory, spiritual heritage, Eastern countries, national identity, values, culture, historical consciousness, tradition, globalization, spirituality, youth education, socio-philosophical analysis.

KIRISH

Har qanday jamiyatning taraqqiyoti uning tarixiy xotirasi va ma'naviy merosiga qay darajada tayanishiga bog'liq. Chunki tarixiy xotira – bu xalqning o'zligini anglash, madaniy ildizlarini asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga mustahkam ma'naviy poydevor yaratishning muhim omilidir. Ayniqsa, Sharq mamlakatlarida shakllangan boy madaniy meros, diniy-axloqiy qadriyatlar va tarixiy tajriba nafaqat mahalliy xalqlarning turmush tarzini belgilab kelgan, balki butun insoniyat taraqqiyotiga ham beqiyos hissa qo'shgan.

Bugungi globallashuv davrida tarixiy xotira va ma'naviy meros masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki yot g'oyalar oqimi kuchaygan sharoitda milliy o'zlikni saqlash, yoshlarni vatanparvarlik va insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni tarixiy ildizlarga sodiq holda zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish zarur bo'lmoqda. Sharq xalqlari tajribasi shuni ko'rsatadiki,

tarixiy xotirani mustahkamlash va ma'naviy merosni asrab-avaylash jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, ma'naviy yuksalishi va taraqqiyotini ta'minlaydigan eng asosiy omillardan biridir.

Shu bois ushbu maqolada Sharq mamlakatlarida tarixiy xotira va ma'naviy merosning tutgan o'rnini, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda globalashuv sharoitida bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlashning pedagogik va falsafiy asoslari tahlil etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarixiy xotira – zamonaviy jahon siyosatining omillaridan biri. Bu borada yaqin o'tmishdagi voqealarning bahosi – xususan, xorijiy Sharq mamlakatlaridagi voqealar bahosi alohida o'rin egallaydi.

Keyingi yillarda xorijiy Sharqning yirik mamlakatlarida siyosatni shakllantiruvchi doiralar, fuqarolik jamiyati, nufuzli ommaviy axborot vositalarining diqqat markazida, odatda keng ko'lamli konfliktlarning sabab-oqibatli aloqalari, ularga yirik davlatlarning jalb qilinishi masalalari o'rin olmoqda. Ayni paytda, bunday voqealarni nihoyatda jiddiy tahlil qilish, shu jumladan, xalqaro huquqdagi bo'shliqlarni, ya'ni yuristlarning tili bilan aytganda, qonunchilikdagi "iyuklarni" aniqlash uchun ham talab qilinadi.

Xorijiy Sharq mamlakatlarining tarixiy siyosatida quyidagi asosiy usullar va mexanizmlar farqlanadi: milliy xotira muassasalarininsh tashkil qilinishi; maxsus muzeylarning yaratilishi; tarixiy voqealarning u yoki bu tarzda sharhlanishini dogmalashtirishga yo'naltirilgan qonunlarning qabul qilinishi; siyosiy buyurtmaga ko'ra amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish; arxivlardan ustuvor foydalanish imkoniyati; ta'lim tizimidan foydalanish; ramziy soha (panteonni yaratish va ilgari surish).

Zamonaviy arab tarixshunosligida ommaviy tarixga u akademik sohadan erkin tashqari chiqib ketganda, va yanada keng auditoriyani qamrab olish mumkin bo'lganda yo'l qo'yilishi mumkin; bunday tarix xatti-harakatlar, ham amaliy, ham virtual muzeylar va ko'rgazmalar tizimi, merosni himoyalash, tegishli qonunchilik, og'zaki tarixni o'rganish va h.z.lar orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon koreys tarixshunosligida ommaviy tarix –professional ta'lim doirasidan tashqariga chiqadigan tarix bo'yicha ta'lim olga, odamlarning keng ko'lamli faoliyatidir. Ommaviy tarix, aslida tarixni, arxiv tarixini, og'zaki tarixni, muzey kuratorligini va boshqa turdosh sohalarni saqlashga chuqur jalb qilingan. Ayni paytda Janubiy Koreyada ommaviy tarixning to'rtta elementi: tarixiy usul (1); tarixiy bilimlarni o'zlashtirish, qadimiy ashyolar yoki qadimiy kitoblarni to'plashning foydaliligini ta'kidlash (2); professional ta'lim va amaliyotga e'tibor qaratish (3); o'tmish bilan ijtimoiy munosabatlar huquq va imkoniyatlarini chuqurlashtirish va kengaytirish (4) va h.z.

Yaponiya sharqshunosligida tarixiy xotira masalalari, boshqalarga nisbatan madaniyatshunoslikka oid jihat, inson bilan bog'liq jihatlar mavjud.

Eron sharqshunosligida kuch va bilimning nisbatiga qiziqish yaqqol sezilib turadi. Mahalliy sharqshunoslik hokimiyatga, g'olib tomon g'oyalariga qiziqishga, mag'lub bo'lgan mustamlakachilar qarshiligiga, mustamlakadan ozod bo'lishga, ilohiy donishmandlikka, tasavvufga, she'riyatga, etika va afsonalarga e'tibor kuchaytiriladi.

Hozirgi zamon arab va turk tarixshunosligida jamoaviy xotira siyosati siyosiy arboblarning tarixiy voqealarga e'tibor qaratish yoki ularga e'tibor bermaslik orqali jamoaviy xotirani shakllantirishga aralashuvi, deb qaraladi. Namunaviy misol ham keltiriladi: Kiprdagi voqealar va orolning bo'linishi, "selektiv xotira", "siyosiy maqsadda, orolning bir guruhi tomonidan ikkinchisiga nisbatan talablarni asoslash uchun foydalaniladigan".

Bunday xilma xillikka qanday munosabatda bo'lish u kerak?

U yoki bu xorijiy sharq mamlakatining o'z milliy madaniyati yutuqlarini, o'z xalqlarining milliy tarixiy merosni va madaniy o'ziga xosligini ommalashtirishga (1), har bir davlatning milliy, madaniy va tarixiy xususiyatlari va qimmatini hisobga olgan holda tarixchlar muloqotiga (2), tarixiy o'tmish, millatning mashhur vakillarining xorijdagi hayoti va faoliyati bilan bog'liq madaniyat yodgorliklari va boshqa ob'ektlarni aniqlash, saqlash va ommalashtirish (3), milliy diasporaning o'ziga xosligini va tarixiy Vatani bilan aloqalarini saqlashga, vatandoshlarning mamlakatga ko'ngilli ko'chib kelishiga ko'maklashish (4), va pirovard natijada, mamlakatning xalqaro maydondagi munosib, tarixiga, geosiyosiy joylashuviga, umumiy qudratiga mos bo'lgan joyini mustahkamlash (1-5).

Ammo ko'pchilik yondashuvlarda yaqqol haddan ortiq holatlar mavjud.

Bir tomondan, bu muayyan xalq siyosiy ongining tarixiy jarohatlariga urg'u berish, jamoaviy xotiradan o'z tashqi siyosatining ustuvor intellektual resursi sifatida foydalanish, ikkinchi tomondan,

ILMIY AXBOROT

har qanday holatda ham o'z geosiyosiy maqsadlariga erishish, tarixdan jahon siyosatida qarama-qarshilik va revansizmni kuchaytirish uchun foydalanishga urinishdir.

Har ikki holatda ham tashqi siyosatlarda "tarixiy dsikursning"s ustunligi, jamoatchilik ongini boshqarish, o'z tarixi va jahon tarixini soxtalashtirish, tarixiy voqealarni siyosiy kon'yunktura maqsadlarida sharhlash, majburlashning noqonuniy usullari, hamkorlarga ta'sir ko'rsatishning ahloqqa zid bo'lgan shakllari va h.z.

Tarixiy xotirani saqlash va ko'paytirish mavzusi muntazam ravishda boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida ham ko'tariladi. Bunda turli mamlakatlardagi hamkorlik hajmi va shakllari tarixiy an'analarga, geografik omillarga, munosabatlar darajasiga, shartnomaviy-huquqiy bazaning holatiga, moddiy-moliyaviy imkoniyatlarga va ayriboshlash ishtirokchilarining ma'lum manfaatlariga bog'liq bo'ladi.

BMT amaliyotida – maxsus yig'ilishlarning o'tkazilishi va jahon tarixining ayrim o'ta muhim voqealari bo'yicha hujjatlarning qabul qilinishi.

Eng avvalo, muvofqlashtirishning etishmasligi tufayli, ko'pgina hujjatlar qoidalarini amalga oshirishning imkoni yo'q.

Xalqaro tarixiy siyosat asoslari, ularni amalga oshirish strategiyalari kabi – o'ta murakkab, ko'p qirrali hujjatlar bo'lib, ular turli yo'nalishlarni: iqtisodiyotdan tortib, ijtimoiy hayotgacha bo'lgan sohalarni qamrab oladi. Va bu o'rinda, bizningcha, ishchi guruhlarning faoliyatini ustuvor deb hisoblash, va ularga nafaqat professional tarixchilarni, balki jamoatchilik tashkilotlari, geografik, tarixiy, harbiy-tarixiy jamiyatlarni, boshqa tuzilmalarni jalb etish kerak.

Xalqaro tashkilotlar va fondlarning a'zo davlatlar tomonidan hujjatli filmlarni yaratish, namoyish qilish va muhokama qilishi e'tiborga loyiq. YuNESKO arsenalida shuningdek foto va kinoarxivlar ham paydo bo'lgan.

Qator davlatlar bilan birgalikda tuzigan tarixchilarning qo'shma komissiyalari ham muhim rol o'ynaydi.

"Jahon xotirasi" ("Memory of the World") Jahon hujjatli merosini himoya qilish bo'yicha dastur doirasida 1997 yildan boshlab, hujjatli meros ro'yxatlari yuritilmoqda (xalqaro, mintaq (Osiyo va Tinch okeani region, arab dunyosi) va milliy darajalarda). U yoki bu yodgorlikning kiritilishi nomzodning Xalqaro maslahat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanishi orqali amalga oshiriladi; bu davomli – birmuncha murakkab jarayon. Hozirgi paytla tilga olingan ro'yxatda yodkorliklarning kichik bir qismi mavjud, ular kam sonli, ayni paytda barcha intellektual boyliklarni aks ettiruvchi to'liq hajmga ega bo'lishni istar edik. YuNESKO ning tilga olingan ro'yxati, boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar ro'yxatlarini yuritish tizimini soddalashtirish taklif qilinmoqda, bunda ro'yxatga olish jarayonining yanada oshkora bo'lishi, o'ta ortiqcha ma'lumotnomalar va ilovalar talab qilinmasligi nazarda tutiladi.

Tarixiy xotiraning ko'pgina ob'ektlari, afsuski, xalqaro e'tiborga molik huquqni belgilovchi hujjatlarga ega emas. Bu esa u yoki bu davlatga ushbu ob'ektlarni aylanmaga kiritish imkonini beradi. Ushbu ob'ektlar haqidagi ma'lumotlardan umumfoydalanish imkoniyati yaratilmagan. Bu ham birmuncha ko'zga ko'rinarli ko'rsatkich bo'lib, xalqaro hamjamiyatda o'ta jiddiy xavotir uyg'otadi.

BMT tomonidan tan olingan xalqaro kunlarning (Masalan, Xalqaro Navro'z kuni (21 mart), BMT da xitoy tili kuni (20 aprel), Xalqaro qullik va Transatlantik qul savdosi qurbonlari xotirasi kuni (25 mart), Xalqaro qul savdosi va uni bartaraf etish kuni (23 avgust), Afrikaning sanoatlashuvi kuni (20 noyabr), Xalqaro genotsid jinoyati qurbonlarining xotirasi, ularning qadr-qimmatini ulug'lash va ushbu jinoyatning oldini olish kuni (9 dekabr), BMT da arab tili kuni (18 dekabr) va b.) nishonlashini muhim ahamiyatga ega.

Umumiy vazifamiz - butun dunyo fuqarolarining ommaviy ongiga u yoki bu muhim voqeaning, birinchi navbatda, jahon hamjamiyatining zamonaviy bunyodkorona hayotidagi o'rni haqidagi g'oyalarni qaytarishdan iborat. Bunga erishish uchun tarix va madaniyatga qiziqish uyg'otadigan va ularni qo'llab-quvvatlovchi xalqaro akademik, ilmiy, ta'limiy, tadqiqot dasturlari va loyihalarining ulushi biroz boshqacha bo'lishi kerak.

Aynan shu o'rinda madaniy meros obektlarini ommalashtirishda faol ishtirok etuvchi jiddiy, siyosatdan xoli bo'lgan, xolisona, obro'li huquqshunoslar, tuzilmalar ko'proq jalb etilishi mumkin. Shuningdek, bunday tashkilotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyati ham mavjud.

XULOSA

Sharq mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarixiy xotira va ma'naviy merosni asrab-avaylash ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lib kelgan. Chunki

tarixiy siyosat – bu faqatgina o'tmishni qayta tiklash emas, balki kelajak avlod ongida milliy g'urur, ma'naviy mas'uliyat va ijtimoiy birdamlikni shakllantirish vositasidir. Bugungi kunda Sharqning etakchi davlatlari o'z tarixiy merosini chuqur o'rganishga, uni jahon hamjamiyatiga keng targ'ib qilishga, shu bilan birga milliy qadriyatlarni globallashuv sharoitida himoya etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Shuningdek, tarixiy siyosatni yuritishda ilmiy erkinlik, mutaxassislar va ekspertlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning izlanishlari uchun zarur sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixiy xotirani o'rganish va uni kelajak avlod ongiga singdirish jarayoni faqat rasmiy siyosat emas, balki ilmiy-tadqiqot, pedagogik ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, Sharq mamlakatlarida olib borilayotgan tarixiy siyosat milliy manfaatlarga tayanib, shu bilan birga umuminsonga xos qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilmoqda.

Demak, tarixiy xotira va ma'naviy merosni asrash, uni yoshlar ongiga singdirish nafaqat milliy o'zlikni mustahkamlaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, xalqaro maydonda Sharq mamlakatlarining o'ziga xos mavqeini belgilab beradigan muhim omildir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alaviya A. Sharq falsafasi va ma'naviy merosi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
2. Saidov A. Sharq mamlakatlarida tarixiy merosni asrash tajribasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
3. Бафоев Ф.М. Вопросы исторической памяти в политике ведущих стран зарубежного Востока // Хорижий Шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва ularни ўрганишнинг долзарб муаммолари мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами.-ТДШИ. – 2020. – 68-72 б.
4. Nasr S.H. Islamic Philosophy from Its Origin to the Present: Philosophy in the Land of Prophecy. – New York: SUNY Press, 2006.
5. Hodgson M. The Venture of Islam. Vol. 1–3. – Chicago: University of Chicago Press, 1974.
6. Toynbee A. A Study of History. – Oxford: Oxford University Press, 1972.
7. Said, E. Orientalism. – New York: Vintage Books, 1978.
8. Islomov Z. Sharq mutafakkirlari qarashlarida ma'naviyat va tarixiy meros. – Toshkent: Fan, 2017.
9. Jo'raqulovich S. J. O 'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2023. – T. 2. – №. 13. – С. 191-197.
10. Бартхольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963.
11. Rahmonov E. Sharq mamlakatlari tarixiy xotira siyosati. – Toshkent: Akademiya, 2021.
12. SHODIEV J. SOCIO-POLITICAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE PERIOD OF UMAR KHAYAM //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.
13. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.
14. Asqarov A. O'zbekiston tarixi: qadimgi davrlardan hozirgacha. – Toshkent: Sharq, 2015.